

PEDAGOGIKA

Rasulova Zilola Durdimurotovna

Buxoro davlat universiteti doktoranti,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
ORCID: <https://orcid.org/0000-0001-5657-356X>

MUAMMOLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANIB TALABALARNING O'QUV-BILIV FAOLIYATLARINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya: Maqolada muammoli o'qitish mazmuni, o'qituvchining dars jarayonlarida muammoli vaziyatlarni yarata olish mahorati va talaba intellektual kuchining rivojlantiruvchi ta'limdi tashkil qilishning psixologik-pedagogik yo'llari ochib berilgan. Muammoli ta'limg asosida o'qitishning asosiy bosqichlari va didaktik maqsadlari ko'rsatilgan. Ta'limg oluvchilarining tanqidiy, mustaqil va ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, aqliy faoliyatni yanada oshirish, muammoli vaziyatlar ularning turli yechimlarini izlab topish, muammoli ta'limg samarali usullari, ahamiyati, xususiyatlari haqida umumiy ma'lumot berilgan. Ilmiy bilimni obyektiv qarama-qarshiligi va uni hal etish usullarini, dialektik mushohadani shakllantirish va rivojlantirishni, amaliy faoliyatga ularni ijodiy tarzda qo'llashni mustaqil ijodiy faoliyati ta'minlash masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Muammoli ta'limg texnologiyasi, muammoli vaziyatlar, intellektual faoliyat, psixologik-pedagogik usullar, qobiliyat, FSMU texnologiyasi, mantiqiy fikrlash, tanqidiy fikrlash, salohiyat, tafakkur, faoliyat uyg'unligi, maxsus qobiliyat, ijtimoiy, taraqqiyot, ziddiyat, izlanish.

РАЗВИТИЕ УЧЕБНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СТУДЕНТОВ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ПРОБЛЕМНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

Аннотация: В статье раскрывается содержание проблемного обучения, умение учителя создавать проблемные ситуации в ходе урока, психолого-педагогические способы организации обучения, развивающего интеллектуальные силы ученика. Обозначены основные этапы и дидактические цели обучения на основе проблемного обучения. Приводятся общие сведения о развитии навыков критического, самостоятельного и творческого мышления обучающихся, дальнейшем повышении умственной активности, поиске решений различных проблемных ситуаций, эффективных методах, значении и особенностях проблемного обучения. Освещены вопросы самостоятельной творческой деятельности, объективного противопоставления научного знания и способов его решения, формирования и развития диалектического наблюдения, творческого применения его в практической деятельности.

Ключевые слова: Проблемная образовательная технология, проблемные ситуации, интеллектуальная деятельность, психолого-педагогические методы, способности, технология ФСМУ, логическое мышление, критическое мышление, потенциал, мышление, гармония деятельности, специальные способности, социальное, развитие, конфликтное, исследовательское.

DEVELOPING STUDENTS' LEARNING ACTIVITIES USING PROBLEM-RESPONSIVE EDUCATIONAL TECHNOLOGIES

Abstract: The article reveals the content of problem-based learning, the teacher's ability to create problem situations in the lesson process, and psychological and pedagogical ways to organize education that develops the student's intellectual strength. The main stages and didactic

goals of problem-based learning are outlined. General information is provided about the development of students' critical, independent, and creative thinking skills, further enhancing mental activity, finding various solutions to problem situations, and effective methods, importance, and characteristics of problem-based learning. The objective contradictions of scientific knowledge and methods for resolving them, the formation and development of dialectical observation, and their creative application in practical activities to ensure independent creative activity are covered.

Key words: Problematic educational technology, problem situations, intellectual activity, psychological and pedagogical methods, abilities, FSMU technology, logical thinking, critical thinking, potential, thinking, activity coordination, special abilities, social, development, conflict, research.

Kirish. Respublikamizning hozirgi davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tamoyillari jahondagi taraqqiy etgan mamlakatlar qatoridan munosib o'rin olish uchun ma'naviy salohiyatimizni va iqtisodiy qudratimizni yanada oshirish, ularni XXI asr ilmiy-texnika taraqqiyoti talablariga javob beradigan tarzda qayta qurishni talab qiladi. Buning uchun yoshlarimiz dunyoqarashini o'zgartirish, ularning bilim va ma'naviyatlarini jahon andozalari darajasiga ko'tarish zarur. Bugun jamiyat ta'lif maskanlari oldiga: maxsus qobiliyatini ularning mustaqil bilishlarini maqsadga muvofiq ravishda rivojlantirishni vazifa qilib qo'ydi. Ana shu vazifalarni hal etishda muammoli ta'lif texnologiyasi yetakchi o'rinni egallaydi.

Muammoli ta'lif asoslari Amerikalik faylasuf va o'qituvchi D.Dyui tomonidan qo'yilgan bo'lib, u ta'lif jarayonida tafakkurni rivojlantirish muammosini ishlab chiqdi. D.Dyui talaba fanda u yoki bu kashfiyot qilgan olim qanday yo'ldan borishi kerak, deb hisoblagan [2]. Talaba muammoni mustaqil tushunishi, farazlarni ilgari surishi, javob izlashi, xato qilishi va qaytadan izlashi kerak. Maqsad talabalar va o'qituvchilarda muammoli fikrlashni rivojlantirishga yordam berishdir. Muammoli ta'lif - bu pedagogik jarayonning shunday tashkil etilishi, agar talaba o'qituvchi tomonidan o'zi uchun yangi bo'lgan muammolarni hal qilish yo'llarini izlashga tizimli ravishda kiritiladi.

Muammoli ta'lif texnologiyasi rejimida darslarni modellashtirishning asosiy xususiyatlari:

Muammoli ta'lif - bu mantiqiy fikrlash jarayoni (tahlil, umumlashtirish va boshqa shu kabilar) va o'quvchilarning izlanishli faoliyati qonuniyatlarini (muammoli vaziyat, bilishga qiziqish, ehqtiyoj) hisobga olib tuzilgan ta'lif va o'qitishning ilgari ma'lum bo'lgan usullarini qo'llash qoidalarining yangi tizimidir. Shuning uchun ham muammoli ta'lif ko'proq o'quvchi fikrlash qobiliyatining rivojlanishini, uning umumiyligi rivojlanish va e'tiqodining shakllanishini ta'minlaydi. Didaktikaning barcha yutuqlarini istisno qilmay, balki ulardan foydalangan holda muammoli ta'lif ilmiy bilim va tushunchalarni, dunyoqarashni shakllantirish, shaxs va uning intellektual faolligini har tomonlama rivojlantirish vositasi sifatida rivojlantiruvchi ta'lif bo'lib qoladi. Muammoli ta'lif nazariyasi talaba intellektual kuchining rivojlantiruvchi ta'lifni tashkil qilishning psixologik - pedagogik usullarini tushuntiradi.

Asosiy qism. Muammoli vaziyatlarning roli va ahamiyatini aniqlash talaba faol fikrlash faoliyatining psixologik-pedagogik qonuniyatlarini izchil ravishda hisobga olib asosida o'quv jarayonini qayta qurish g'oyasiga olib keldi. Yangi pedagogik faktlarni nazariy jihatdan mulohaza qilib ko'rish asosida muammoli ta'lifning asosiy g'oyasi aniqlanadi: muammoli ta'lifda bilimning deyarli katta qismi o'quvchilarga tayyor holda berilmaydi, balki o'quvchilarning tomonidan muammoli vaziyat sharoitlarida mustaqil bilish faoliyati jarayonida egallab olinadi.

Ma'lumki, shaxsnинг har tomonlama va garmonik rivojlanishining muhim ko'rsatikichi - yuqori darajada fikr yuritish qobiliyatining mavjudligidir. Agar ta'lif ijodiy qobiliyatni rivojlantirishga olib borsa, u holda uni so'zning zamonaviy ma'nosida rivojlanuvchi ta'lif deb hisoblash mumkin.


Rivojlanuvchi ta'lif deb, ya'ni umumiyligi va maxsus rivojlanishga olib keladigan shunday ta'lifni hisoblash mumkinki, unda o'qituvchi fikr yuritishning qonuniy rivojlanishni bilimga

- 60 tayangan holda, maxsus pedagogik vositalar yordamida o‘z-o‘quvchilarini fan asoslarini o‘rganish jarayonida fikrlash qobiliyati va bilish ehtiyojini shakllantirishga oid maqsadga yo‘naltirilgan ish faoliyatini olib boradi.

Muammoli ta’lim texnologiyasiga asoslangan ta’lim jarayoni quyidagi to‘rtta bosqichda amalga oshiriladi:

- muammoli vaziyat hosil qilish;
- muammolarni shakllantirish va muammoni yechish uchun umumiylahil qilish;
- tahmin qilingan yechimni tekshirish;
- amaliy va nazariy xarakterdagi masalalarda qo‘llash, ularni tartibga solish hamda siyosiylashtirish.

Muammoli vaziyat - bu yangi bilim va ularni olishning yangi usullarini izlashni talab qiladigan intellektual qiyinchilik holati. Intellektual qiyinchilik holatlari ko‘pincha muammoli savol yordamida yaratiladi.



Muammoli o‘qitishning didaktik tizimda nomoyon bo‘lishi

O‘quv jarayonining bosqichlariga mos ravishda didaktik maqsadlarni shakllantirish maqsadga muvofiq. Talabalar bilimlarini baholash uchun vazifalarni quyidagi didaktik maqsadlar bilan birlashtirish:

- bilim va ko‘nikmalarni yangilash;
- yangi ta’lim ma’lumotlari blokidan xabardorlik va tushunish;
- bilimlarni mustahkamlash va tizimlashtirish;
- bilimlarni yangi o‘quv vaziyatida qo‘llash;
- bilim va malakalarini egallash darajasini tekshirish [3].

O‘quv materialining maqsadi va mazmuniga ko‘ra muammoli o‘quv faoliyati turli shakllarda olib boriladi, samarali shakllardan biri blokli muammoli darsdir. Muammoli blokli darsni ishlab chiqishda:

1. Mazmun bir necha mantiqiy qismlarga bo‘linadi.
2. Har bir mantiqiy qism uchun muammoli savol tuziladi.
3. Darsdagi har bir muammoli savol uch marta, lekin turli didaktik maqsadlarda beriladi:
a) bilimlarni yangilash; b) o‘quv ma’lumotlaridan xabardor bo‘lish va tushunish; c) yangi bilimlarni mustahkamlash.
4. Konsolidatsiya bosqichida vazifa muammolidan reproduktivga aylantiriladi, chunki savolga javob yangi ta’lim ma’lumotlarini tushunish va tushunish jarayonida allaqachon o‘zlashtirish, bu bosqichda muammoli masalani yechish mantiqini yodlash jarayoni sodir bo‘ladi.
5. Har bir blokda axborot manbalari bilan ishlash usuli o‘zgaradi.
6. Bloklardan birida axborot manbai sifatida vizualizatsiya bilan ishlashni taklif qilish muhimdir.

7. Axborot bilan ishslash texnikalarining kombinatsiyasi o‘quv materiali va o‘quv qurollarining mazmuniga bog‘liq.

8. Diagnostik nazorat bosqichida muammoli masalalarni yechish qobiliyati darajasi tekshiriladi. Buning uchun siz 2-3 vazifani tanlashni taklif qilish mumkin. Agar talabalar qarama-qarshiliklarni aniqlash, gipotezani shakllantirish, uni isbotlash va xulosa chiqarish qobiliyatini namoyish qilsalar. Yuqori daraja – “a’lo” bahoga o‘zlashtiradilar.

G.K.Selevko fikriga ko‘ra muammoli vaziyatlarni yaratish usullari – o‘qituvchi ta’lim oluvchilarni qarama-qarshilikka olib keladi va uni o‘zlarini hal qilish yo‘lini topishga taklif qiladi;

- talabalarni vaziyatdan qiyoslash, umumlashtirish, xulosa chiqarish, faktlarni solishtirishga undaydi;
- aniq savollarni qo‘yadi (umumiylashtirish, asoslash, aniqlashtirish, fikrlash mantig‘i uchun);
- muammoli nazariy va amaliy vazifalarni (masalan, tadqiqot) aniqlaydi;
- talabalarni turli pozitsiyalardan hodisalarini ko‘rib chiqishga taklif qiladi;
- muammoli muammolarni keltirib chiqaradi (masalan, dastlabki ma’lumotlarning yetarli emasligi yoki ortiqcha bo‘lishi, savolni shakllantirishdagi noaniqlik, qarama-qarshi ma’lumotlar, aniq xatolarga yo‘l qo‘yilganligi, yechish vaqt cheklanganligi va boshqalar) [5].

Muammoli ta’limning asosiy psixologik-pedagogik maqsadi kasbiy muammoli fikrlashni rivojlanтирish - har bir aniq faoliyat o‘ziga xos xususiyatlarga ega [6].

Muammoli ta’limni tadqiqot metodi bilan aynan bir narsa deb emas, balki talaba tafakkuri va uning xotirasining rivojlanishini ta’minlaydigan, bilimlarni ijodiy o‘zlashtirishiga, ilmiy faktlarni jamlashga ko‘maklashadigan hamda e’tiqodni tarkib toptiradigan ta’limning bir turi deb qarash lozim. Biroq muammolilik saviyasi va mustaqil bilish darajasi talabalarning yosh va individual xususiyatlariga, ularning muammoli ta’lim texnologiyasi bilan o‘qitilganlik darajasiga qarab farqlanadi.

Muammoli ma’ruzaning maqsadiga erishish muvaffaqiyati o‘qituvchi va talaba auditoriyasining birgalikdagi sa’y-harakatlari bilan ta’minlanadi. Asosiy o‘qituvchining vazifasi ma’lumotni yetkazish emas, balki talabalarni ob’ektiv qarama-qarshiliklar bilan tanishtirishdir [4].

Dars jarayonlarida muammoli texnologiyalaridan FSMU texnologiyasini qo’llash haqida to‘xtalamiz.

Ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda, baxs-munozaralar o‘tkazishda yoki amaliy mashg‘ulotlar yakunida (tinglovchilarning mashg‘ulotlar haqidagi fikrlarini bilish maqsadida), yoki o‘quv rejasi asosida biron bo‘lim o‘rganib bo‘lingach qo‘llanilishi mumkin, chunki bu texnologiya tinglovchilarni o‘z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o‘z fikrini boshqalarga o‘tkazishga, ochiq holda bahslashishga, shu bilan qatorda o‘quvchi talabalarni, o‘quv jarayonida egallagan bilimlarini tahlil etishda, qay darajada egallaganliklarini baholashga hamda tinglochilarni bahslashish madaniyatiga o‘rgatadi.

Maqsad: Ushbu texnologiya tinglovchilarga tarqatilgan oddiy qog‘ozga o‘z fikrlarini aniq va qisqa holatda ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarini bayon etishga yordam beradi.

O‘tkazish texnologiyasi.

Ushbu texnologiya bir necha bosqichda o‘tkaziladi.

1-Bosqich

– trener tinglovchilar bilan birga babs mavzusini yoki muhokama etilishi kerak bo‘lgan muammoni, yoki o‘rganilgan bo‘limni belgilab oladi;

– trener o‘quv mashg‘ulotida avval har bir tinglovchi yakka tartibda ishlashi, keyin esa kichik guruhlarda ish olib borilishi va nihoyat dars oxirida jamoa bo‘lib ishlanishi haqida tinglovchilarga ma’lumot beradi;

– mashg‘ulot davomida har bir tinglovchi o‘z fikrini erkin holda to‘liq bayon etishi mumkin ekanligi eslatib o‘tiladi.

2 - Bosqich

Har bir tinglovchiga FSMU texnologiyasining 4-bosqichi yozilgan qog'ozlar tarqatilgan:

F - fikringizni bayon eting.

S - fikringizni bayoniga sabab ko'rsating.

M - ko'rsatgan sababingizni isbotlab misol (dalil) keltiring.

U - fikringizni umumlashtiring.

Har bir tinglovchi yakka tartibda qog'ozdagi FSMU-ning 4-bosqichini o'z fikrlarini yozma bayon etgan holda to'ldiradi.

3 - Bosqich

Har bir tinglovchi o'z qog'ozlarini to'ldirib bo'lgach, trener ularni kichik guruhlarga bo'linishlarini iltimos qiladi yoki o'zi turli guruhlarga bo'lish usullaridan foydalangan holda tinglovchilarni kichik guruhlarga bo'lib yuboradi;

trener har bir guruhgaga FSMU texnologiyasining

4 - Bosqich yozilgan katta formatdagi qog'ozlarni tarqatadi;

trener kichik guruhlarga har birlari yozgan qog'ozlardagi fikr va dalillarni katta formatda umumlashtirgan holda

4 - bosqich bo'yicha yozishlarini taklif etadi.

– kichik guruhlarda avval xar bir tinglovchi o'zi yozgan har bir bosqichdagi fikrlari bilan guruh a'zolarini tanishtirib o'tadi. Guruh a'zolarining barcha fikrlari o'rganilgach, kichik guruh a'zolari ularni umumlashtirishga kirishadi;

– guruh a'zolari FSMU ning 4-bosqichini har biri bo'yicha umumlashtirib, uni himoya qilishga tayyorgarlik ko'radilar;

– fikrlarni umumlashtirish vaqtida har bir tinglovchi o'z fikrlarini himoya etishi, isbotlanishi mumkin.

5 – Bosqich – kichik guruhlari umumlashtirilgan fiklarini himoya qiladilar: guruh vakili har bir bosqichni alohida o'qiydi iloji boricha izoh bermagan holda. Ba'zi bo'limlarni isbotlashi, ya'ni guruhlarning aynan nima uchun, shu fikrga kelganini aytib o'tishi mumkin.

6 - Bosqich

– trener mashg'ulotga yakun yasaydi, bildirilgan fikrlarga o'z munosabatini bildiradi;

– quyidagi savollar bilan tinglovchilarga murojat qiladi:

1. Ushbu trening yordamida nimalarni bilib oldingiz va nimalarga o'rgandingiz?

2. Ushbu texnologiyani o'quv jarayonida qo'llanilishi qanday samara berdi?

3.Ushbu texnologiyani qo'llanilishi o'quvchi qanday xislatlarni tarbiyalaydi, nimalarni shakllantiradi, ularning qanday fazilatlarini rivojlantiradi?

4. Ushbu texnologiyaning o'quv jarayonining qaysi bosqichida qo'llanilgani ma'qul va nima uchun?

5. Ushbu texnologiyani dars jarayonida qo'llanilishi o'quvchi talabalarga nima beradi va nima o'rgatadi?

6. Ushbu texnologiyani yana qanday tartibda yoki qanday shaklda o'tkazish mumkin?

Ushbu treningning asosiy vazifasi nimadan iborat.

IZOH: yuqorida keltirilgan savollar har bir treningning mazmuni, maqsadidan kelib chiqib trener tomonidan tinglovchilarga yoki o'quvchilarga berilishi mumkin.

Tarqatma materialning taxminiy nusxasi.

FSMU TEXNOLOGIYASI

(F) - fikringizni bayon eting

(S) - fikringizni bayoniga biron sabab ko'rsating

(M) - ko'rsatilgan sababni tushuntiruvchi (isbotlovchi) misol keltiring

(U) - fikringizni umumlashtiring.

Bu texnologiyani qo'llashda avval o'qituvchi mavzu yuzasidan har bir talabaningning fikrini formatga tushuirish topshirig'ini beradi. Talabalar fikrlarini bayon qilib bo'lgandan keyin, o'qituvchi ularni ikkita kichik guruhlarga bo'lib, guruh a'zolarini fikrlarini isbotlashga buyuradi. Har bir o'quvchi o'z fikrini isbotlagach, guruhnинг barcha fikri umumlashtirilib guruh a'zolari bir-

biri bilan fikr almashadilar va bir-birlarining fikrlarini o'rganadilar. Natijada har bitta talabada mavzuga oid bir qancha yangi fikrlar paydo bo'ladi va mavzu mohiyatini chuqur anglaydilar. Oxirida o'qituvchi ikkala guruhning barcha fikrlarini to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini isbotlab beradi.

Bunaqa fikrdan kamida 15 ta bo'ladi, shu 15 ta fikrni har bir talaba o'zlashtiradi.

Demak FSMU texnologiyasining afzalligi shundaki, mavzu yuzasidan har bir ishtirokchi o'z fikrida to'xtalibgina qolmay, balki bir qancha yangi yangi fikrlarga ega bo'ladilar. Talabalarning tafakkurini o'stiradi, mustaqil fikrlashga o'rgatadi, ushbu texnologiyani qo'llashda ko'proq o'qituvchimas, talabalar faolligi oshadi.

Muammoli ta'lim o'qituvchidan aniq harakat qilishni, darsning har bir daqiqasini hisobga olishni, ushbu vaqtida kerakli samara hosil bo'lishi uchun o'zining barcha imkoniyatlarini va mahoratini ishga solishni talab etadi. Bu masalani hal etishning muhim sharti o'qituvchining bo'lajak o'quv mashg'ulotiga tayyorgarligidir. Tayyorgarlik jarayonida muammoli ta'limning barcha ko'rinishlarini hisobga olish va uning uslubini ishlab chiqish zarur. Muammoli ta'limga tayyorgarlik ko'rishda o'qituvchilar qator qiyinchiliklarga duch keladilar. Bu qiyinchiliklarni yengishda o'qituvchini innovatsion ijodiy laboratoriyasining ahamiyati katta.

Ana shunday *qiyinchiliklardan biri* darsni muammoli tashkil qilish va muammoni o'rganish usullarini tanlashdadir. Chunki tanlangan usul faqat o'quv materialini o'zlashtirishni ta'minlabgina qolmay, balki talabalar faoliyatida mustaqillikni ham ta'minlashi zarur.

Ikkinci qiyinchilik muammoli ta'limning ko'rinishini aniqlashda yuzaga keladi, ya'ni o'qituvchi muammoni yechishga auditoriyadagi barcha talabalarni jalb qiladimi yoki vazifani ayrim guruh talabalariga bajartiradimi? Bu qiyinchilik o'qituvchida muammoli vaziyat va muammoning bayoni haqidagi tasavvurlarning yetishmasligidan kelib chiqadi.

Uchinchi qiyinchilik esa darsda talabalarning qiziqishini uyg'otish va uni uzlusiz rivojlantirib borishida ko'rindi. Chunki talabalar diqqatini bir nuqtaga muntazam toplashga o'qituvchining tajribasi va mahorati yetmasligi mumkin.

Muammoli ta'lim haqida to'plangan ma'lumotlarga asoslanib, shuni ta'kidlash lozimki, bu ta'lim turi ilmiy-uslubiy jihatdan 3 ko'rinishga ega.

Muammoli vaziyat yaratish usullari:

- o'qituvchi talabalarga dars mavzusi bilan bog'liq ziddiyatlari holatni tushuntiradi va uni yechish yo'lini topishni taklif qiladi;
- bir masalaga doir turli nuqtai nazarlarni bayon qiladi;
- hal etish uchun yetarli bo'limgan, ortiqcha ma'lumotlar bo'lgan yoki savolning qo'yilishi noto'g'ri bo'lgan masalalarni yechishni taklif etadi va boshqalar.

Muammoli vaziyatni fikriy tahlii qiladigan bo'lsak, u avvalombor talabalarning mustaqil aqliy faoliyatidir. U talabani intellektual mashaqqat keltirib chiqargan sabablami tushunishga, unga kirish, muammoni so'z bilan ifodalash, ya'ni faol fikr yuritishni belgilashga olib keladi. Bu o'rinda izchillik yorqin ko'rindi: avvalo muammoli vaziyat yuzaga keladi, so'ng o'quv muammozi shakllanadi[1].

Muammoli vaziyatni hal etish darajalari:

- o'qituvchi muammoni qo'yadi va o'zi yechadi;
- o'qituvchi muammoni qo'yadi va uning yechimini talabalar bilan birgalikda topadi;
- talabalarning o'zлari muammoni qo'yadilar va uning yechimini topadilar.

Muammoli vaziyatni yechishda qo'llaniladigan usullar:

- ✓ muammoni turli nuqtai nazaridan o'rganish, tahlil qilish;
- ✓ solishtirish, umumlashtirish;
- ✓ faktlarni aniqlash va qiyoslash;
- ✓ vaziyatga bog'liq xulosalar chiqarish;
- ✓ talabalarning o'zлari aniq savollar qoyishi va boshqalar.

Muammoli texnologiyani amalga oshirish uchun quyidagilar zarur:

1. Eng dolzarb muhim vazifalarni tanlash.
2. Har xil turdag'i o'quv ishlarida muammoli ta'lim xususiyatlarini aniqlash.

3. Muammoli ta'limning optimal tizimini yaratish, o'quv-uslubiy qo'llanmalar va qo'llanmalarni yaratish.

4. O'qituvchining shaxsiy yondashuvi va mahorati, talabalarning faol kognitiv faoliyatini qo'zg'atish qobiliyati.

Xulosa sifatida shuni aytish lozimki, muammoli vaziyat hosil qilish o'qituvchidan alohida mahorat talab qiladi va uni hech qanday tayyorgarliksiz amalga oshirib bo'lmaydi. Muammoli vaziyatni vujudga keltirish, bu muammoni hal qilish uchun talabalarning faol ishtirokini ta'minlash, mustaqil fikr yuritishga jalb qilish o'qituvchidan ijodkorlikni talab etadi. Muammoli vaziyatni hal qilish jarayonida talabalar manbalardan unumli foydalanish orqali mustaqil fikrlash va mustaqil tafakkur yuritishga o'rganadi. Muammoli vaziyatni tashkil qila olish esa o'qituvchi innovatsion faoliyatining natijasi sifatida amalga oshiriladi. Ta'lim jarayonlarida muammoli ta'limning o'qituvchi va talabalar hamkorligidagi afzalligi shundaki, talabalarning yuqori mustaqilligi, ularning kognitiv qiziqishini yoki shaxsiy motivatsiyasini shakllantirish, talabalarda dialektik tafakkurning paydo bo'lishi kabi ustuvorliklarga ega. Muammoli ta'lim jarayonida o'qituvchining faoliyati eng murakkab tushunchalar mazmunini tushuntirish, tizimli ravishda muammoli vaziyatlarni yaratish, faktlarni talabalarga yetkazish va ularning o'quv va kognitiv faoliyatini shunday tashkil etishdan iboratki, faktlar tahlili asosida talabalar mustaqil ravishda xulosalar va umumlashtiradilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Azizzxo'jayev N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma. -T.: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamgarmasi nashriyoti. 2006, 160 b.
2. Ishmuhamedov R., Yuldashev M.. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. O'quv qo'llanma. – T.: 2013 y. -279 bet.
3. Omonov N.T., Xo'jayev N.X., Madyarova S.A., Eshchonov E.U. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Darslik.– T.: "Iqtisod-moliya" 2009 y. – 240 bet.
4. Оконь В.В. Введение в общую дидактику / В. Оконь. – СПб.: Изд-во Питер, 2001. – 367 с.
5. Селевко Г.К. Современные образовательные технологии. учебное пособие.– М.: Народное образование, 1998.
6. Вербицкий А.А. Активное обучение в высшей школе: контекстный подход / А.А. Вербицкий. – М.: Изд-во Высшая школа, 2001. – 231 с.
7. Internet manbaa: ziyonet.uz